

**AYOL HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA
OLIY HARBIY BILIM YURTLARNING O'RNI**

Paxratdinova Aruxan Kerimberdievna

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Kalit so`zlar: Qurolli Kuchlar, ayol harbiy xizmatchilar, Oliy harbiy bilim yurtlari, chet davlatlar harbiy bilim yurtlari, O`zbekistondagi harbiy bilim yurtlar, kasbiy faoliyatga moslashtirish.

Annotatsiya

Maqolada Qurolli Kuchlar tizimida ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirish, dunyo davlatlaridagi ayolar harbiy xizmati va O`zbekistondagi harbiy bilim yurtlar solishtirilib o`rganilganligi so`z etilgan.

Ключевые слова: Вооруженные Силы, женщины-военнослужащие, Высшие военные учебные заведения, зарубежные военные учебные заведения, военные учебные заведения Узбекистана, адаптация к профессиональной деятельности.

Аннотация: В статье сравнивается подготовка женщин в Вооруженных Силах, военная служба женщин в мире и военные училища в Узбекистане.

Keywords: Armed Forces, female servicemen, Higher military educational institutions, foreign military educational institutions, military educational institutions in Uzbekistan, adaptation to professional activity.

Annotation

The article compares the training of women in the Armed Forces, women's military service in the world and military schools in Uzbekistan.

Ma`rifatparvar bobomiz Abdullo Avloniy: “Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir¹”-deb ta`kidlab, xalqni ilm, bilimli, tarbiyalii qilish masalasiga e`tibor qaratgan.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda pedagog kadrlar bilan birga mudofaa tizimida xizmat qiluvchi oliy ma`lumotli ofitser kadrlar taylorlash masalasi ko`ndalang qo`yildi. Ofitser kadrlarni tayyorlovchi ta`lim muassasalari haqida so`z yuritganda, harbiy bilim yurtlarning paydo bo`lish tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, o`tmishda bo`lib o`tgan jangu-jadallarning

¹ Каримов И.А: “Юксак маънавият-енгилмас куч” “Маънавият”; Т.,2008-й, бет-68

o`zi har bir davlat o`zini mudofaa qilish uchun harbiy bilim yurtlarini tashkil etish zarurligini keltirib chiqardi.

Oliy harbiy ta`lim muassasalari haqida so`z borganda, MDH davlatlarining harbiy bilim yurtlari haqida ham to`xtalib o`tishni maqsad qildik:

“Rossiya Federatsiyasining Mudofaa vazirligi”, “Rossiya Federatsiyasining Federal Xavfsizlik xizmati”, “Rossiya Federatsiyasining Tashqi Razvedka xizmati”, “Rossiya Federatsiyasining Federal Milliy gvardiyasi jangovor xizmati”, “Rossiya Federatsiyasining Ichki ishlar vazirligi” singari birqator davlat idoralari mavjud bo`lib, har yili ushbu idoralarga “Rossiya Federatsiyasi Harbiy universiteti”, “Harbiy Tibbiyat uchelishesi”, “Krasnodar shahridagi Aviatsiya harbiy instituti”, “Mojayskiy nomidagi Harbiy-kosmik Akademija”, “Sankt-Peterburg shahridagi harbiy artilleriya universiteti”² singari bir qator Oliy harbiy bilim yurtlarni tamomlagan ofitserlar yo`qorida nomlari keltirilgan davlat idoralariga ishga joylashadi.

Qo`shni Qozog'iston Respublikasida esa “Qozog'iston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi”, “Qozog'iston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligiga qarashli Qarag'anda shahar Yuridika instituti”, “Qozog'iston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli Harbiy dengiz instituti”, “Chimkent shahar harbiy maktab internati”³ singari 20 dan ziyod oliy va o`rta maxsus harbiy bilim yurtlar mavjud.

Shu bilan birgalikda, chet davlatlarda yigitlar bilan birqatorda xotin-qizlarni tayyorlovchi harbiy bilim yurtlari mavjud. Misol tariqasida aytadigan bo`lsak, Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida joylashgan Tibbiyat akademiyasida xotin-qizlar harbiy shifokorlar Stomatologiya va farmatsevtika yo`nalishi bo`yicha o`qitiladi. 1919 yili tashki etilgan Marshal S.Budyonniy nomidagi Harbiy aloqa akademiyasida qizlar avtomatlashtirish yoki telekommunikatsiya kabi fanlar bo`yicha ta'lif oladi.

Bundan tashqari dunyoning deyarli ko`pchilik mamlakatlarida ayollar jangovar bo`linmalarda tayyorlanadi va ularning ta`lim olish tizimi maxfiyligicha saqlanadi.

O`zbekiston Respublikasidagi harbiy bilim yurtlarga to`xtaladigan bo`lsak, harbiy bilim yurtlar XX asrning 18-yillarida Toshkent shahrida tashkil topdi. Bu sohaga kadrlarni V.I.Lenin nomidagi universitetni tamomlagan harbiy xizmatchilar tanlab olingan⁴. (hozirgi O`zbekiston Milliy universiteti). Bu oliygohda mayor A.V.Adryanovning “Harbiy-pedagogik kurs” o`quv qo`llanmasi o`qitilgan va ularning bilimlari mustahkamlab borilgan.

² www.wikipedia.ru.org

³ Military-kz.ucoz.org

⁴ Р.М.Махмудов: “Ҳарбий психология ва педагогика”; ЎзРес МГ Ҳарбий-техника институти. Тошкент-2019-йил, 104-405-бетлар.

Mustaqillik yillarda Qurolli Kuchlar tizimida yangilanishlar, reformalar yuz berdi. Bugungi kunga kelib, Respublikamizda quyidagi Oliy harbiy ta`lim muassasalarida ofitser kadrlar tayyorlanmoqda:

Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Chirchiq Oliy tank qo`mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqand Oliy avtomobil qo`mondonlik-muxandislik bilim yurti, Qarshi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus fakulteti, Toshkent Nibbiyat Akademiyasi maxsus fakulteti, O`zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona instituti, O`zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Temurbeklar maktabi, Ixtisoslashtirilgan harbiy akademik litseylarda yetuk mutaxassislar tomonidan yoshlarga bilim bermoqda.

“Oliy harbiy ta`lim muassasalariga tinglovchi va kursantlarni o`qishga qabul qilish tartibi to`g'risidagi Nizom”ga ko`ra o`qishga qabul qilinuvchi talabgorlarning deyarli 90% ini o`g'il bolalar tashkil etadi. O`zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi saflariga harbiy ayollar xizmatga qabul qilindi. Dunyoning ayrim davlatlarida xotin-qizlar uchun harbiy xizmat majburiy etib belgilangan. O`zbekiston Respublikasida esa xotin-qizlar uchun harbiy xizmat ma`jburiy emas. Ammo, konstitutsiyamizda ko`rsatilgan huquq va erkinliklar negizida ayollar harbiy xizmatga qabul qilinadi.

Hulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning tabiyatan nozikligini, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda harbiy bilim yurtlarga o`qishga qabul qilish kerak. Chunki oliygohda ular kasbga moslashgan yetuk mutaxassislar bo`lib chiqadi. Ayol harbiy xizmatchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirish, o`rganilishi kerak bo`lgan masalaladan biri bo`lib hisoblanadi.

Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Каримов И.А: “Юксак маънавият-енгилмас куч” “Маънавият”; Т.,2008-й, бет-68
2. www.wikipedia.ru.org
3. Military-kz.ucoz.org
4. Улуғбеков Б. “Қардош Туркия давлатининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлашга назар” www.IIV.uz
5. Р.М.Махмудов: “Ҳарбий психология ва педагогика”; ЎзРес МГ Ҳарбий-техника институти. Тошкент-2019-йил, 104-405-бетлар.